



TOG‘AY MURODNING “YULDUZLAR MANGU YONADI” ASARIDA DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANILISHI

Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

Ro‘ziyeva Sevinch Sadimurod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mashhur yozuvchi Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarining til xususiyatlari, xususan, asarda qo‘llangan dialektizmlar o‘rganilgan va ularning ma‘nosi izohlangan.

Kalit so‘zlar: dialekt, dialektizmlar, qipchoq shevasi, sheva elementlari, poeziya

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучаются языковые особенности произведения известного писателя Тогая Мурада «Звезды сияют вечно», в частности, изучаются диалектизмы, использованные в произведении, и поясняется их смысл.

Ключевые слова: диалект, диалектизмы, кыпчакский диалект, элементы диалекта, поэзия.

ANNOTATION

In this article, the language features of the famous writer Togai Murad's work "Stars shine forever", in particular, dialectisms used in the work are studied and their meaning is explained.

Key words: dialect, dialectisms, Kipchak dialect, dialect elements, poetry

KIRISH

Badiiy asar tilining obrazlilik uning tasviriy va hissiy xususiyatini yuzaga chiqaradi. Badiiy asar tili xarakterlar va manzaralarni yaqqol gavdalantirish uchun, birinchi navbatda, ularning ichki dunyosini, mohiyatini butun qarama-qarshiliklari bilan aks ettiradi va shu akslangan hayot kitobxon his-tuyg‘ularini uyg‘otadi. Badiiy asar tili go‘zal bo‘lishi kerak, chunki san‘atkorning vazifasi go‘zallik yaratishdir. Buning uchun tasvir etilayotgan xulq, manzara, holat so‘z tufayli kitobxonning ko‘z oldida aniq (ushlab ko‘radigan darajada) va yorqin (bironta xira qiladigan chiziq bo‘lmasligi), borligicha namoyon bo‘lishi lozim.



ASOSIY QISM

O‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan Tog‘ay Murod asarlarining o‘ziga xos tili va uslubiyati mavjud. Tog‘ay Murodning asarlarini nasrdagi poeziya deyishadi. Uning qissalari she‘rday o‘qiladi, katta bir asardek taassurot qoldiradi. Xuddi shunday asarlaridan biri “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi hisoblanadi. Asar tili va yozuvchi uslubi muallif unib-o‘sgan Surxon vohasida yashaydigan xalq tili (qipchoq shevasi) va muomala usuli bilan chambarchas bog‘liqdir. Tog‘ay Murod go‘yo qishloqdoshlariga qiziqarli bir rivoyat so‘zlab berayotganday tutadi o‘zini. U shu tinglovchilariga tushunarli, sodda tilda so‘zlaydi, qisqa-qisqa gaplar tuzadi. Shunisi qiziqki, bu hikoya usuli yurtimizning istagan hududidagi o‘quvchini ham darrov o‘ziga tortadi, uni jon qulog‘ini berib eshitishga undaydi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida bizga notanish bo‘lgan:

baycha –xon, oy, gul;

qo‘shxona –olisdan kelmishlar qo‘ngan xonadon;

jelak – kurashda kiyiladigan kiyim;

it yiqilish –ikki polvon baravar yiqilsa;

mom qilgan – g‘olib qilgan, g‘olib;

galagov –ho‘kizlarni matab xirmon yanchish;

dustaman –yuztuban

kabi ko‘plab shevaga oid so‘zlar uchraydi.

Asarda Tog‘ay Murodgagina xos bo‘lgan o‘ziga xoslik – shevalardan, xalq maqol va iboralaridan unumli foydalanishining guvohi bo‘lamiz. Polvonlarning samimiy suhbat, or-nomus uchun kurashi juda jonli tasvirlangan. Asarda kurash, polvonlar, ular o‘rtasidagi munosabatlar xalqimizning azaliy urf odatlari, to‘y - hashamlari aks ettirilgan. Asarda kurashga oid ko‘plab atamalar, sheva elementlarini ko‘rishimiz mumkin, xususan: halol, dustaman, it yiqilish, tuya chil, yotibotarga olish, chil berish, cho‘nqaymaga olish, barmoq o‘yini, uchchoga olish, o‘ynab olishuv, it chil, yonbosh, g‘irrom, chalqayramon tashlash va hokazolar. Shuningdek, vohada ya‘ni Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida kurash so‘zi o‘rnida “olish” so‘zi qo‘llanishi ham aytiladi.

Asarda kurashning tartib-qoidalari qat‘iy ekanligini va boshqa sport turlaridan farqini quyidagi parchada yaqqol ko‘rish mumkin:

– Xaloyiq ko‘rdilaringiz, sho‘rchiliklar olishimizga birmuncha shak keltirdi!
– dedi. – Bilasiz, ukkag‘ar o‘sha sambodayam, erkin kurashdayam, klassik kurash, dyuzdo deganidayam, barcha-barchasida polvon dustaman (yuztuban), yo yonbosh yiqilsa, yo tizzalab o‘tirib qolsa ikkinchisi halol yiqitaman deb, bechora polvonni



sudrab yerga piypalaydi. Yo bo'lmasa, biror joyini qayiradi. Yerda yumalab yotgan odamni sudraydi-ya! Yo pirim-e, yo pirim-e... Bu erkakning ishi emas! Erkakmisan – oyog'ida tik turgan erkak bilan olish.

Bo'ri polvon tilidan olingan yuqoridagi parchada kurash tartib-qoidalari, an'analari boshqa sport turlari bilan solishtiriladi. Ushbu parchada o'zbek xalqiga xos an'ana va qadriyatlarga sodiqlikni, qipchoq shevasiga xos bo'lgan til xususiyatlarini, shuningdek, olish, dustaman, piypalamoq kabi shevaga xos so'zlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga qissada kurashga xos usullar ham mahorat bilan tasvirlangan.

...Qo'l chil azal-azaldan man etiladi. Boisi, qo'l chilga olinmish qo'l yo chiqib ketadi, yo sinib ketadi. Qo'l lat yegach, qo'l o'ynama bo'lib qoladi. Oqibat, polvonning yana qaytib davraga chiqishi amrimahol bo'lib qoladi.

Yana bir usul bo'lmish cho'nqaymaga esa quyidagicha ta'rif beriladi:

...Cho'nqayma g'oyat nozik san'at bordi-yu, polvon cho'nqaymaga qilishni eplay olmasa, o'zi mag'lub bo'ladi. Cho'nqayma g'oyat nozik san'at bordi-yu, cho'nqaymaga olinmish polvon chili chiqib ketsa, yerga... harommag'izi bilan borib tushadi. Cho'nqaymaning qaltis taraflari tag'in ko'p...

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Tog'ay Murod asarlaridan o'ziga xos milliy ruh ufurib turadi. Asarlarida qo'llangan shevaga xos so'zlar esa kitobxonni o'sha makon va zamonga tushib qolgandek his ettiradi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida xalqimizga xos bo'lgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar, shuningdek, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalana olishni yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi
2. Adabiyot umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik majmua II qism Toshkent "Manaviyat" 2017
3. S.Ashirboyev "O'zbek dialektologiyasi" darslik Toshkent – 2016
4. H.Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti – 2004
5. www.ziyonet.uz